

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTI**



TASDIQLAYMAN
Denov tadbirkorlik va
pedagogika instituti rektori
O.A. Ruziyev
28 mart 2026 - yil

**ILMIY RAHBAR (KONSULTANT)LAR FAOLIYATINI BAHOLASH TARTIBI
TO‘G‘RISIDA**

NIZOM

DENOV – 2026

DENOV TADBIRKORLIK VA PEDAGOGIKA INSTITUTINING
ILMIY RAHBAR (KONSULTANT)LAR FAOLIYATINI BAHOLASH
TARTIBI TO‘G‘RISIDAGI
NIZOMI

1. Umumiy qoidalar

1.1. Denov tadbirkorlik va pedagogika institutining (keyingi o‘rinlarda DTPI) “Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi” nizomi (keyingi o‘rinlarda-nizom) DTPIning ilmiy ilmiy rahbarlar faoliyatini baholash tartibi to‘g‘risidagi nizom bo‘lib, mazkur nizom “Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi, ilmiy rahbarlar (konsultantlar) faoliyatini baxolovchi mezonlar, ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirishda (rag‘batlantirish, qayta tayyorlash, yuklamani qayta ko‘rib chiqish)” kabi mavzularni qamrab oladi va ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun tashkil etiladi.

1.2. Nizom DTPI Kengashining qarori asosida rektorning buyrug‘iga asosan tasdiqlanadi. Mazkur nizom Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholashda, ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirishda (rag‘batlantirish, qayta tayyorlash, yuklamani qayta ko‘rib chiqish) foydalaniladi.

1.3. Ushbu nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risidagi qonuni”, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2017 yildagi 304-son qarori va soxaga oid me‘yoriy xujjatlarga asosan amalga oshiradi.

2. Nizomning asosiy yo‘nalishlari

2.1 Tashkilotda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi.

2.2. Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezonlari va ko‘rsatkichlari.

2.3. Ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirish (baholash natijalari asosida moddiy va ma‘naviy rag‘batlantirish).

2.4. Ilmiy rahbarlar faoliyatini baholash bo‘yicha reyting yoki monitoring jadvali.

2.5 Doktorantlar (PhD/DSc) ilmiy faoliyatini baholash tartibi to'g'risidagi ichki reglament yoki yo'riqnoma.

3. Nizomning maqsad va vazifalari

3.1. Nizomning asosiy maqsadi - ilmiy rahbar (konsultant)lar tarkibining sifat ko'rsatkichlari hamda ularning ilmiy-tashkiliy faoliyati natijadorliklarini oshirish.

3.2 Nizomning asosiy vazifalari:

- institutda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash;
- ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati samaradorligini baholash tizimining yo'lga qo'yish va shu asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish.

4. Institutda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini yillik baholash tartibi

4.1. Institutda ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyati har yili 1-marta (dekabr oyida) monitoring qilinadi. Ilmiy rahbarlarning ichki monitoring jarayonlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.05.2017 yildagi 304-son qarorining 53-55-bandlarida keltirilib o'tilgan izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi natijalariga muvofiq amalga oshiriladi. Bunda bevosita ilmiy rahbarlarga biriktirilgan

5. Ilmiy rahbar (konsultant)lar faoliyatini baholash mezonlari va ko'rsatkichlari

5.1. Izlanuvchilar faoliyati samaradorligining monitoringi natijalari;

5.2. Dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun (*Asos: PhD yoki DSc ilmiy daraja diploma tasdig'i*).

5.3. Ilmiy rahbar (konsultant)larning so'nggi 3 yildagi Scopus, Web of Science, chop etilgan ilmiy nashrlari (*Asos: Scopus, Web of Science ma'lumotlar bazasidan olingan ma'lumotlar*).

5.4. Ilmiy rahbar (konsultant)lar oxirgi 3 yil davomida qaysi davlat grantlari, xalqaro loyihalar yoki xo'jalik shartnomalari asosidagi ilmiy-loyihaviy va innovatsion ishlarda ishtirok etganligi (*Asos: shartnomalar*).

5.5. Doktorantlar tomonidan ilmiy rahbar (yoki ilmiy konsultant) ishtirokida ixtiro, foydali model, seleksiya yutug'i yoki patent olinganligi va ushbu natijalar dissertatsiya mavzusi bilan bevosita bog'liqligi (*Asos: ixtiro, foydali model, seleksiya yutug'i yoki patentlar*).

6. Ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirish (baholash natijalari asosida moddiy va ma'naviy rag'batlantirish)

6.1. Ilmiy rahbarlar faoliyatini takomillashtirish maqsadida bir martalik moddiy va ma'naviy rag'batlantirish faqatgina dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlaganligi uchun bir martalik rag'batlantiriladi.

6.2. Rag'batlantirish uchun asos izlanuvchining PhD yoki DSc ilmiy daraja diplomining tasdig'i hisoblanadi.

6.3. Dissertatsiyaning o'z vaqtida yoki muddatidan oldin himoya qilinishini ta'minlagan alsafa doktorlari (PhD) ilmiy rahbarlariga lavozim maoshiga nisbatan 30 foizgacha etib belgilanadi.

6.4. Fan doktorlari (DSc) ilmiy maslahatchilariga lavozim maoshiga nisbatan 60 foizgacha etib belgilanadi.

6.5. Ushbu qaror bilan joriy etilayotgan bir martalik rag'bat to'lovlari miqdori bir oyda — falsafa doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 30 foizidan hamda fan doktori ilmiy darajasiga ega xodimlar uchun lavozim maoshining 60 foizidan oshmasligi kerak;

7. Ilmiy rahbarlar faoliyatini baholash bo'yicha monitoring jadvali

T/r	Ixtisosliklar	Faoliyat baholanuvchilari	O'tkazilish vaqti
1	07.00.07 - Etnografiya, etnologiya va antropologiya	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
2	03.00.07—O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
3	13.00.01-Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
4	10.00.04-Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
5	08.00.01 "Iqtisodiyot nazariyasi"	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
6	05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majumalari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
7	10.00.06 Qiyosiy adabiyotshunoslik;	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni

	chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik		
8	08.00.07- Moliya, pul muomalasi va kredit	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
9	02.00.13-Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
10	10.00.01-O'zbek tili	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
11	08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
12	07.01.01 - O'zbekiston tarixi	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
13	03.00.10-Ekologiya	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
14	05.01.08. – “Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishlarni avtomatlashtirish”	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
15	08.0015-Tadbirkorlik va kichik biznes	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
16	01.01.01 - Matematik analiz	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
17	01.01.05 - Ehtimollar nazariyasi va matematik statistika	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni
18	13.00.02 - Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)	Ilmiy rahbarlar	Har yili to'rtinchi chorak yakuni